



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI

KASBIY TA'LIM AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

2026-yil 13-avgust

153-son

Toshkent shahri

Kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun "Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoniga muvofiq kasbiy ta'lim tashkilotlarini raqamli kontentlar bilan ta'minlashni kengaytirish, raqamli ta'lim resurslarini yaratilishini qo'llab-quvvatlash hamda 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son qaroriga muvofiq kasbiy va xalqaro standartlar asosida yangilangan ta'lim dasturlari asosida ta'lim kontentlarini yaratish, Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi hamda Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi 2026-yil 30-apreldagi 216-son qaroriga muvofiq tizim xodimlari yoki o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan respublika tanlovlarini o'tkazish hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 19-iyundagi kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlar o'rtasidagi "Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" ko'rik-tanlovini tashkil etish to'g'risidagi 252-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Kasbiy va xalqaro standartlar asosida yangilangan kasbiy ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun raqamli ta'lim resurslari yaratish maqsadida 2026-2027 o'quv yilidan boshlab har yili "Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" respublika ko'rik-tanlovi (keyingi o'rinlarda – Tanlov) tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

"Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" respublika ko'rik-tanlovining o'tkazish tartibi **1-ilovaga** muvofiq;

"Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mita tarkibi **2-ilovaga** muvofiq;

"Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" Respublika ko'rik-tanlovida ishtirok etish uchun raqamli ta'lim resurslari ishlab chiqiladigan kasb va mutaxassisliklar ro'yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, har yili:

tanlovning 1-bosqichi kasbiy ta'lim tashkilotlari miqyosida 10-noyabrga qadar;

tanlovning 2-bosqichi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaharlari miqyosida 20-noyabrga qadar;

tanlovning 3-bosqichi Respublika miqyosida 10-dekabrga qadar o‘tkaziladi.

4. Ta’lim jarayonini tashkil etish boshqarmasi (O.Saxibov), Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti (X.Kadirov):

tanlovning barcha bosqichlarida tanlov hay’ati a’zolariga raqamli ta’lim resurslarini baholash bo‘yicha grafik asosida seminar o‘tkazsin;

tanlovning respublika bosqichini yuqori saviyada o‘tkazilishini tashkil etsin;

tanlov natijalariga ko‘ra eng yaxshi raqamli ta’lim resurslarini respublika bo‘yicha ommalashtirish choralari ko‘rsin.

5. Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti (X.Kadirov):

tanlovning barcha bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazilishini muvofiqlashtirsin;

tanlovning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlashga zarur mablag‘lar uchun Kasbiy ta’lim agentligi Moliya-iqtisodiyot boshqarmasiga talabnoma kiritsin;

yo‘nalishlar bo‘yicha tanlovning respublika bosqichida sovrinli o‘rinlarni egallagan g‘oliblarga tegishli darajadagi diplom namunalarini tayyorlasin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kasbiy ta’lim agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar kasbiy ta’lim boshqarmalariga:

tanlovning 1 va 2-bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin;

10-noyabrga qadar tanlovning 2-bosqichini o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mitasini shakllantirsin;

20-noyabrga qadar tanlovning 2-bosqichi yakunlari bo‘yicha respublika bosqichiga tavsiya etiladigan raqamli ta’lim resurslari ma’lumotlarini Kasbiy ta’limni rivojlantirish institutiga taqdim etsin;

tanlovning respublika bosqichida g‘olib deb topilgan raqamli ta’lim resurslari mualliflarini tanlovning taqdirlash marosimida ishtirok etishini ta’minlasin.

7. Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (N.Ibragimov) tanlovning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash uchun Kasbiy ta’limni rivojlantirish institutining talabnomasiga asosan Kasbiy ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan zarur mablag‘larni ajratish choralari.

8. Yoshlar tarbiyasi va kasbiy tanlovlarni tashkil etish bo‘limi (F. Zaripov) tanlovning respublika bosqichida g‘olib deb topilgan raqamli ta’lim resurslari mualliflarini taqdirlash marosimini yuqori saviyada o‘tkazish choralari ko‘rsin.

9. Axborot xizmati (S.Samandarova) tanlovning barcha bosqichlarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishini tashkil etsin.

10. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish direktor o‘rinbosari Sh.Sharofaddinov zimmasiga yuklansin.

Direktor

ERI
orqali imzolangan
Kasbiy ta’lim agentligi

A. Xusanov